

ROGER MCGOUGH SHE'RIYATIDA OY VA QUYOSH TALQINI

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili integrallashgan kursi №3

kafedrası katta o‘qituvchisi

maqsadxonhakimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotining taniqli vakili, Liverpool shoirlari guruhi a'zosi Roger McGough she'riyatidagi oy va quyosh obrazlari tahlil qilinadi. McGoughning she'rlarida osmon jismlari chuqur metaforik ma'noga ega bo'lib, ular insoniy hissiyotlar, umid, iztirob va vaqtning o'tishi kabi mavzular bilan bog'langan. Maqolada shoirning oy va quyoshga doir timsollari orqali kecha va kunduz, nur va qorong'ulik, sevgi va yolg'izlik singari qarama-qarshi tushunchalar qanday aks ettirilgani tahlil etiladi. Shu orqali McGoughning o'ziga xos poetik uslubi va estetik qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Liverpool shoirlari, she'r, pop san'ati, pop she'riyati, ommaviy ijro san'ati, eksperimental she'r, badiiy innovatsiya, cliché.

Abstract: This article analyzes the images of the moon and the sun in the poetry of Roger McGough, a prominent representative of English literature and a member of the Liverpool Poets group. In McGough's poems, celestial bodies carry deep metaphorical meanings, symbolizing human emotions, hope, suffering, and the passage of time. The article explores how the poet uses these symbols to reflect opposing concepts such as night and day, light and darkness, love and loneliness. Through this analysis, McGough's unique poetic style and aesthetic views are highlighted.

Keywords: Liverpool Poets, poem, pop art, pop poetry, performance art, experimental poetry, artistic innovation, cliché.

Аннотация: В данной статье анализируются образы луны и солнца в поэзии Роджера МакГафа, выдающегося представителя английской литературы и члена группы «Ливерпульские поэты». В стихотворениях МакГафа небесные тела несут глубокий метафорический смысл, символизируя человеческие эмоции, надежду, страдание и течение времени. В статье рассматривается, как поэт использует эти символы для отражения противоположных понятий, таких как ночь и день, свет и тьма, любовь и одиночество. Через этот анализ раскрываются уникальный поэтический стиль и эстетические взгляды МакГафа.

Ключевые слова: Ливерпульские поэты, стихотворение, поп-арт, поп-поэзия, искусство перформанса, экспериментальная поэзия, художественные инновации, клише.

San'at faqat kiborlar va aslzodalargina emas, oddiy xalq vakillari uchun ham tushunarli bo'lishi va xizmat qilishi kerak degan gumanistik g'oya zamirida vujudga



kelgan pop-art – pop san’ati XX asr g’arb nazmida pop-poetry – pop she’riyatining paydo bo’lishiga zamin yaratdi. Bu adabiy to’lqin, o’z navbatida, ingliz, shu jumladan, jahon adabiyoti sahnasida Liverpool shoirlarining “dunyoga kelishi” va kamol topishiga asos bo’ldi. Og’ir jismoniy mehnatdan vaqti va mablag’i ortib boshlang’ich savodi ham chiqmagan oddiy odamlar uchun-da tushunarli – sodda tilda yozilgan she’rlarini keng omma orasiga kirib, katta-kichik davralarda ijro etuvchi liverpullik pop shoirlari uchligi ushbu nom ostida birlashib, adabiyot tarixi sahifalariga Liverpool shoirlari sifatida muhrlanganiga qadar xalqining ana shunday jafokash qatlamidan chiqqani holda, tirikchilik uchun ter to’kish bilan bir qatorda universitetlarda tahsil oldilar. Professional faoliyatini ta’lim sohasida olib borgan shoir ijodiy karerasini 1963-yilda “The Scaffold” pop musiqiy guruhi a’zosi sifatida boshladi. Adrian Henri va Brian Pattenlar bilan birgalikda Liverpool shoirlari sifatida tanilganidan keyin ham guruhdagi faoliyatini to’xtatmadi va o’n yil davomida (guruh tarqalib ketguniga qadar), ta’lim sohasi bilan bir qatorda, san’atning har ikki jabhasida ham faol ijod qildi. Roger McGoughning shoir sifatida yozgan eksperimental she’rlari va ijodining badiiy innovatsiyalarga boy ekanligi, oddiy tilda ifodalangan va zamonaviy-ijtimoiy masalalarni yorituvchi asarlari bilan xalq tilini she’riyatga olib kirib, badiiy ifodaning yangi shakllarini yaratganligida ko’rinadi. Uning ijodi ijtimoiy kontekstdagi katta o’zgarishlar, siyosiy va madaniy tahlillar bilan chambarchas bog’liq bo’lib, badiiy eksperimentlar orqali bu mavzularni ochib berishga xizmat qiladi.

Shoirning keng tasavvur imkoniyatlari va boshqalar ko’rmaydigan favqulotda g’aroyib holatlarni ko’ra olish qobiliyatini “Mrs Moon” she’rida yaqqol ko’rish mumkin. Qadim-qadim zamonlardan beri odamlar oying chiroyiga maftun bo’lganlar. Dunyoda uning chiroyi va go’zalligini romantik dunyoqarash orqali kuylaydigan minglab she’rlar mavjud. Shoir qanchalik yangilikka intilmasin, she’riyatda oy – bir cliché (siyqasi chiqib ketgan so’z va iboralar, ko’p uchraydigan gap) va bundan qochish qiyin. “Mrs Moon” she’rida shoir oy tasviridan foydalanishiga qaramay, uni boshqacha nigoh bilan ko’radi. An’anaga ko’ra, oy ayol timsolini aks ettiradi. U erkak sifatida ta’riflanuvchi, kun qiroli bo’lmish quyoshning jufti – osmon malikasi, yosh va navqiron go’zal yoxud go’zallarning qiyg’och qoshi. Shoir esa “Mrs Moon” [1, 27] she’rida uni kichkina jussasini tebranma kursiga tashlab, qo’llariga ilmoqlarini olib, ehtimolki, kun bo’yi horib-tolgan nabiralarning ustlarini yopib qo’yish uchun, bedorlik bilan tunni to’qib o’tirgan beozorgina nuroniy onaxon qiyofasida tasvirlaydi. Shoir o’zbek tilida azal-azaldan oymomo deb, suyib erkalangan oyni ingliz tiliga xos bo’lmagan ma’noda kashf etadi.

Mrs Moon
sitting up in the sky
little old lady
rock-a-bye
with a ball of fading light
and silver needles
knitting the night.
(“Mrs Moon”)

Oy Momo
osmonning to’risida
o’tirgan mitti kampir
tebranma kursisida
nim nur sochib yiroqdan
kumush ilmoqlar bilan
u tunni to’qimoqda.
(“Oy Momo”)

Roger McGough she’rlarida ramzlarni, ularning doimiy ma’nolarini chetlab o‘tib, intuitiv ravishda qo‘llaydi. Shu bilan birga u an’anaviy simvollarini rad etmaydi, cliché’larni yoqtirmasligiga qaramay, o‘zi ham ulardan foydalanadi va ayni vaqtda “eski” belgilarni yangi kontekstga kiritib, o‘quvchini ularni boshqa nuqtayi nazardan – o‘zgacha ranglarda ko‘rishga undaydi. Chunonchi, oy shoir eng ko‘p murojaat qilgan – yuzga yaqin she’rlarida qo‘llagan tasvir vositalaridan biri. E’tiborga molik jihati shundaki, u hamma joyda ham bir xil ma’noda kelavermaydi. Otasining yelkalariga minib ketayotgan baxtiyor bolakay uchun oy osmonda bo‘lsa ham, qo‘l uzatsa yetgulik imkon (“My Little Eye”) [2, 1], sevishganlarga qarab jilmayib turgan sirdosh (“An Apology”) [2, 26], qo‘llarni muzlatadigan sovuq (“A lot of Water has Flown under your Bridge”) [2, 30], nilufar gullar chayqalib turgan suvda aksini ko‘rib, o‘ziga o‘zi maftun bo‘lib qolgan go‘zal (“The Fish”) [2, 41], dardkash shishadosh (“Star Juice”) [2, 349]. Shoir hamisha go‘zallarning go‘zalligiga mezon bo‘lib kelgan oyni chiroyli ko‘rinishga urinayotgan yoshi o‘tgan ayolga mengzaydi (“Aren’t We All”) [2, 32].

There’s the moon trying to look romantic
Moon’s too old that’s her trouble
Aren’t we all?

Qanchalar romantik qiyofa kasb etishga urinmasin, oy keksayib qolganligidan tashvishda. Lirik qahramonning sevgilisi esa shunchalar go‘zalki, zulmat tunga chiroy bag‘ishlash uchun oy bo‘lib, ko‘kka ko‘tariladi.

A woman in a negligee	Harir ko‘ylakdagi ayol
Walking out through the window	Derazadan chiqib
Over the sleeping city up into the sky	Uyqudagi shahar uzra ko‘kka ko‘tariladi

To give the moon a rest

Oy orom olsin deya

“Summer With Monika” [2, 63] she’rida oy lirik qahramonning rashkiga sabab g‘anim – oshiq erkak qiyofasida gavdalanadi. U har kech mashuqaning xonasiga bemalol kirib boradi, qiz ham bunga qarshilik qilmaydi va uning nurli bag‘rida uxlaydi. Axir u darpardalarni yopib, oynalarni to‘siq qo‘yishi ham mumkin edi, ammo xonasiga oyni kirib kelishiga o‘zi ruxsat beradi. Yigit esa shundan g‘azabda.

said i trusted you	senga ishonaman devdim
spoke too soon	tezda-tezda aytib turardim
heard of your affair	qilmishingni eshitdim
with the maninthemoon	oy bilan qilgan
say it’s all over	hammasi tugadi degin
then if you’re right	gaping rost bo‘lsa agar
why does he call	nega seni chaqirib keladi
at the house every night?	har tun uyingga?

Oy oshiq yigit qarshisidagi raqib bo‘lsa, quyosh tutqich bermas mahbuba. “The sun no longer loves me” [2, 43] she’rida shoir o‘zini maftun etgan go‘zalni quyoshga mengzaydi. U ketganida dunyosi zulmatga cho‘madi, qiz yana keladi, lekin oshig‘ini sevganligi uchun emas, kelishi kerak bo‘lganligi uchun – but out of a sense of duty (lekin burch hissi tufayli) keladi. Ba’zan u uzoq vaqt yigitning yonida qoladi, she



leans silky / against the wall lolling and stretchy (u ipakdek sollaradi/ devorga suyanadi va cho‘ziladi), lekin oshiq ko‘pincha uni ahyon-ahyonda scratches at clouds (bulutlar tarqalganida) ko‘radi. Qiz quyoshga o‘xshaydi, chunki kech tushishi bilan ketib qoladi: Whenever I ask her to stay the night / she takes umbrage / and is gone (Men undan tunda yonimda qolishini so‘raganimda / u xijolat tortadi / va ketib qoladi). Sevgilisi u bilan vaqt o‘tkazishni istamasligini ko‘rgan yigit qizni osmondagi quyosh qadar yuksaklikda, o‘zini esa yerda deb biladi. Quyosh odamzodga yorug‘lik va issiqlik hadya etadi, biroq bularning evaziga insoniyat unga hech nima bermaydi. Yigit ham qizni ko‘rganida qalbi nur va haroratga to‘ladi, lekin unda ham quyoshga taklif qiladigan narsaning o‘zi yo‘q. Shundan u “The sun no longer loves me” – “Quyosh endi meni sevmaydi” deydi.

Quyosh otashin muhabbat timsoli. Sevib qolgan inson uchun hamisha va hamma joyda quyosh porlaydi, sevgisiga yeta olmasa, dunyoni zulmat qoplagandek tuyuladi. “Sundeath / greentears” [2, 39] she‘rida dildor sevaman degan on, quyosh porlab ketadi va shaharda hayot jonlanadi, ammo ketar chog‘i u xayrlasharkan bunga hatto quyosh ham bardosh bera olmaydi, uni avtobus urib ketadi – oshiq uchun hayot to‘xtaydi.

Maninthemoon yoki Sundeath kabi so‘zlar lug‘atlarda uchramaydi, ularni shoir o‘zi o‘ylab topadi, bu so‘zlarni izohlar bilan tushuntirib bo‘lmaydi, zotan “har qanday ulug‘ san‘atkorning she‘rida so‘z uning o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘udan bir necha hissa ortiq ma‘nolarni ifodalaydi. Eng zukko she‘rshunosning ham tahlil imkoniyatlari cheklangan.” [4, 147] Roger McGoughning “she‘riy tildan original tarzda foydalana olish qobiliyatini ... va yangicha topilmalarini” [3, 1] yana boshqa ko‘plab she‘rlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning she‘rlarida ingliz tili lug‘atlarida uchramaydigan so‘zlarni ko‘rish mumkin. Shoir bolalar leksikonidagi so‘zlarni qayta-qayta kashf etadi va kattalar nutqidagi ko‘p ma‘noli so‘zlardan ustalik bilan foydalanadi. Yengil tabassum bilan aytilgan fikrlari ostida teran mantiqiy haqiqatlar yotadi. Kattalar shoiri sifatida muhabbat va tanqid mavzularida qalam tebratgan bo‘lsa, bolalar uchun yozgan she‘rlari rang-barang bo‘lib, ijodining katta qismini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. McGough, Roger. 80 poems. UK. Puffin Books. 2017.
2. McGough, Roger. Collected Poems. UK. Penguin Books. 2004.
3. Wright, B. Roger McGough :the poetics of accessibility.-ProQuest UIM Dissertations Publishing. United Kingdom. 2003.
4. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. – Тошкент. “Камалак”. 1991. 147-бет.